

**“ZAMONAVIY O‘ZBEK HAMDA JAHON ADABIYOTI NAMUNALARINI
O‘QITISH: MAZMUNI VA USULLARI”.**

Usmonova Saxovat Ravshanovna

Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani 1-son politexnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotini tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini ifodalashdagi o‘rni. Uni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda asarlar orqali milliy qadriyatlarni anglashi, estetik dunyoqarashi kengayishi. Adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodining, tarixiy manbalardan, shuningdek, interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirishda xizmat qilishi, Jahon adabiyotini o‘qitishda esa o‘quvchilarni turli xalqlar madaniyati, badiiy tafakkuri va estetik qadriyatlari bilan tanishtirish haqidagi fikrlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek adabiyot, tarixiy meros, manaviy meros, madaniy meros milliy qadriyat, xalqlar madaniyati, badiiy tafakkur.*

Аннотация: В данной статье рассматривается роль узбекской литературы в выражении исторического, духовного и культурного наследия. В процессе её изучения учащиеся постигают национальные ценности через произведения и расширяют свой эстетический кругозор. Использование на уроках литературы устного народного творчества, исторических источников, а также интерактивных методов служит повышению эффективности знаний учащихся, а при обучении мировой литературе – приобщению учащихся к культуре, художественному мышлению и эстетическим ценностям разных народов.

Ключевые слова: узбекская литература, историческое наследие, духовное наследие, культурное наследие, национальная ценность, культура народов, художественная мысль.

Annotation: *This article discusses the role of Uzbek literature in expressing the historical, spiritual and cultural heritage. In the process of teaching it, students understand national values through works and expand their aesthetic worldview. The use of folk oral works, historical sources, as well as interactive methods in literature lessons serves to increase the effectiveness of students' knowledge, and in teaching world literature, it is considered to familiarize students with the culture, artistic thinking and aesthetic values of different peoples.*

Keywords: *Uzbek literature, historical heritage, spiritual heritage, cultural heritage, national value, culture of peoples, artistic thought.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimida adabiyot darslari nafaqat badiiy asarlarni o‘qish va tahlil qilishni, balki o‘quvchilarda estetik did, ma’naviy ong, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishni ham taqozo etadi. Shu nuqtai

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

nazardan zamonaviy o‘zbek va jahon adabiyoti namunalarini o‘qitish mazmuni hamda metodikasini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi

O‘zbek adabiyoti — xalqning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosining ifodasi. Uni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar asarlar orqali milliy qadriyatlarni anglaydi, estetik dunyoqarashi kengayadi. Tadqiqotchilar fikricha, adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodidan, tarixiy manbalardan, shuningdek, interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshiradi [3]. Yangi o‘zbek adabiyoti mamlakat, xalq hayoti, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan mustahkam aloqadorlikda tug`ildi, shakllandi. Ko`p asrlik tariximizda so`z san`ati hech qachon yurt qayg`usi, xalq turmushi bilan bu qadar yaqin aloqada bo`lgan emas, bu bosqich adabiyotning kuchli tomonlari ham, ojiz jihatlari ham shu xususiyatlar bilan izohlanadi. Xalq hayotida kundalik turmush hodisalariga yaqinlik, bir tomonidan asarlarning hayotiyligi, haqqoniyligini oshirgan, Bundan tashqari, o‘zbek adabiyotini o‘qitishda faol metodlar — munozara, klaster, rol o‘ynash, muammoli savollar kabi usullar o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirokchi sifatida jalb etadi [4].

Jahon adabiyotini o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchilarni turli xalqlar madaniyati, badiiy tafakkuri va estetik qadriyatlari bilan tanishtirishdir. O‘zbek maktablari va oliv ta’lim muassasalarida Shekspir, Balzak, Tolstoy, Gyote, Hemenguey, Kafka singari adiblarning asarlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarda madaniyatlararo dunyoqarash shakllanadi [2]. Zamonaviy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, jahon adabiyotini o‘qitishda madaniyatlararo taqqoslash, badiiy obrazlarni qiyosiy tahlil qilish, lingvokulturologik yondashuvlar samarali hisoblanadi [1].

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar faol kirib keldi. Elektron darsliklar, multimediali taqdimotlar, onlayn testlar, virtual muzeylar yordamida o‘quvchilarda asarlarni qabul qilish jarayoni yengillashmoqda [5].

Shuningdek, loyiha asosida o‘qitish (Project Based Learning), case-study, klaster va fishbone metodlari adabiyotni o‘qitishda keng qo‘llanilmoqda. Bu usullar orqali o‘quvchilar asar mohiyatini chuqurroq anglaydi, tahlil qiladi va zamonaviy tafakkur shakllanadi [3]. Adabiyot darslari faqatgina badiiy bilim berish emas, balki o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlар ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, adabiyot o‘qituvchisi asar tahlilida nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma’naviy maqsadlarni ham ko‘zda tutishi lozim [4].

Xulosa qilib aytganda Zamonaviy o‘zbek va jahon adabiyoti namunalarini o‘qitishning mazmuni o‘quvchilarda keng dunyoqarash, mustaqil fikrlash va estetik didni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda innovatsion metodlar, madaniyatlararo taqqoslash, interaktiv yondashuvlardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Adabiyot darslarini mazmunli tashkil etish orqali yosh avlodni barkamol inson sifatida tarb iyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova, A.K. Scientific and Methodological Foundations of Teaching Karakalpak Language and Literature in 8th-9th Uzbek Grades. International Journal of Scientific Trends, 2025.
 2. Navruzova, M.; Salikhova, L. Scientific Theoretical Basis of Teaching Uzbek Literature. Science and Innovation in the Education System, 2024.
 3. Kallebekov, N.P. The Use of Folklore Materials When Teaching Uzbek Literature at University. International Journal of Advance Scientific Research, 2023.
 4. Islomova, F. Use of Active Methods of Teaching in Organization of Mother Tongue Education. Oriental Journal of Social Sciences, 2022.
 5. Jumaniyazova, I. Use of Innovative Technologies of Education in Teaching the Samples of Classic Literature. International Conference Proceedings, 2023.
- 